

**G’O’ZANI BARGIDAN OZIQLANTIRISHNING SO’RUVCHI  
ZARARKUNANDALARGA TA’SIRI**

**Isashova Umidaxon Anvarjanovna**

Andijon qishloq ho‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
O‘simliklar va qishloq ho‘jalik mahsulotlari  
karantini kafedrasi dotsenti,

**Holdarov M**

Andijon qishloq ho‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti  
magistranti.

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada g’o’za ekinin asosiy so’rvuchi zararkunandalaridan biri bo‘lgan o’rgimchakkananing bioekologik hususiyatlari hamda unga qarshi agrotexnik kurash chorasi qo’llangan. Natijada 66,5% biologik samaradorlikka erishilgan.

**Kalit so‘zlar:** G’o’za, o’rgimchakkana, bioekologiya, agtotexnik tadbir.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматриваются биоэкологические особенности паука-паука, одного из основных сосущих вредителей хлопчатника, а также агротехнические меры борьбы с ним. В результате была достигнута биологическая эффективность 66,5%.

**Ключевые слова:** Хлопок, паук, биоэкология, агротехническая деятельность

**ABSTRACT:** This article discusses the bioecological features of the spider spider, one of the main sucking pests of cotton, as well as agrotechnical measures to combat it. As a result, a biological efficiency of 66.5% was achieved.

**Key words:** Cotton, spider, bioecology, agrotechnical activity.

Qishloq xo‘jalik ekinlari himoya qilish soxasida katta yutuqlarga erishilganligiga qaramay hali hosilni zararkunanda va kasalliklar ta’siridan ko‘p qismi nobud bo’lmoqda. Jahon adabiyotidagi ma’lumotlarga ko’ra qishloq xo‘jalik ekinlarida 70 mingdan ortiq turdagি Hasharot va kanalar turkumiga mansub zararkunanda organizmlar uchraydi.

G'o'zaning asosiy so'ruvchi zararkunandalaridan biri bo'lib o'rgimchakkana xisoblanadi. O'rgimchakkana g'o'zani asosan bargini orqasiga joylashib, barg shirasi bilan oziqlanadi. Zararlangan barglar rangi o'zgarib, natijada shikastlangan gul va tugunchalar to'kiladi.

BMT bergan malumotiga ko'ra qishloq xo'jaligidagi zararli organizmlar keltiradigan zarar atiga 34 % ni, bizda esa 26 % ni tashkil etish ta'kidlanadi. Alimuxammedov va boshqalar (1988) takidlashicha O'zbekiston sharoitida g'o'za ekiladigan maydonlarda, g'o'za o'sish va rivojlanishi davrida 214 turdan ortiq zararli Hasharotlar rivojlanadi va zarar keltiradi. Ko'pchilik olimlarni fikriga ko'ra asosiy zararkunandalar xisobiga yil davomida g'o'za hosildorligi 55-60 % yo'qotiladi.

O'simliklarni himoya qilish tadbirlarini unumli va samarali amalga oshirish, g'o'za Hosilini saqlashda asosiy omillaridan biri xisoblanadi.

Endilikda g'o'zani umumiyligi himoya qilish tadbirlari xam tubdan o'zgarmoqda bunda diqqat bor tabiatdagi foydali Hasharotlarga qaratilmoqda. Xozirgi kunda pestitsidlarni keng qo'llashning zararli oqibatlari malum bo'lmoqda. CHunki ko'p yillar davomida, Zararkunandalarni zararlilik iqtisodiy mezonini xisobiga olmasdan kimyoviy zaharli moddalarni surunkasiga ishlatishi natijasida, atrof muxit, suv-xavo, xayvonot olami zararlanib insonlar salomatligiga katta zarar yetkazmoqda. SHuning uchun keyingi yillarda g'o'za zararkurandlariga qarshi kurashishda uyg'unlashgan kurash uslubidan zararkunandlarni sonini kamaytirish bilan birgalikda, tabiatdagi foydali Hasharotlarni rivojlanishiga va o'simlikni yaxshi o'sishiga sharoit yaratilib beriladi.

## **O'rgimchakkana (*Tetranuchys urticae koch*) ni rivojlanishining biologik xususiyatlari**

## 1-jadval

Zararkunandaning Qishlash bosqichi	1 yilda bo'g'in soni	Rivojla nishi uchun eng pastki Harorat bo'sag'asi	Foydali Harorat yig'indisi Bir bo'g'inini rivojlanishi uchun	Rivojla nish uchun optimal Harorat	O'rgimchak kana uchun haroratning quyi cheгараси
Urug'langan urg'ochi (imago fazada)	Sharoit ga qarab 12- 20 tagacha	<sup>7.30</sup> S	<sup>199</sup> S	Xavo Harorati 26- 33 <sup>0</sup> S; xavo namligi 55- 60%	-29 <sup>0</sup> S da kanalar 100% qirilib ketadi.

Tajriba maydonida may oyining 1 chi o'n kunligida boshlab Har 10-kunda g'o'zada uchraydigan o'rgimchakkana rivojlanishi va zararini tanlab olingan o'simliklardan kuzatilib rivojlna boshlagandan unda o'rgimchakkana paydo bo'la boshlaydi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki g'o'za chinbang chiqargan davridan boshlab, o'rgimchakkana sezilarli zarar keltira boshladi. O'rgimchakkana asosan aprel oyining 2-o'n kunligidan g'o'zaga o'tib jiddiy zarar ko'rsata boshlaydi. Ayniqsa g'o'za shonalash davriga kelganda o'rgimchakkana yoppasiga ko'payib zararlilik iqtisodiy chegaradan o'tib ketdi. SHu davrda biz tajriba variantimizda o'rgimchakkanani sonini kamaytirish maqsadida unga qarshi ammososning 10%li eritmasini qo'llab uning samaraddorligini aniqladik. Bu davrda o'rgimchakkana soni 1-barg xisobida 41-44- donagacha bo'lganligi aniqlanadi. YUqorida aytganimizdek kuzatishlar tanlab olingan o'simliklardan, har bir o'simlikdan 3-ta (pastki o'rta va yuqori yarusidan) bargni tekshirsh yo'li bilan amalga oshirdik. Tajriba maydonida 24-may kuni o'rgimchakkanaga qarshi kurash chorasi qo'lladik kuzatishlarimiz har o'n kunda sentyabr oyigacha davom etadi. Keyingi kuzatishlarimiz xulosasiga ko'ra mavsum oxirigacha tajribi variantimizdan o'rgimchakkana zararlilik chegarasidan oshmadi. Nazorat variantimizda esa avgust oyini 1 chi o'n kunligida o'rgimchakkana sezilarli zarar yetkazdi. 1-bargda 36-donaga yetdi. Tajriba variantimizda qayta kurash chorasi o'tkazilmadi va bitta

bargda 12 donani tashkil qildi. Qo'llanilgan korbomid va ammofosning eritmasini biologik samaradorligini 66,5 % ni tashkil qiladi. O'rgimchakkanani zararlik iqtisodiy chegarasini 1-bargda 25-dona va undan ortiq bo'lsa deb belgilangan. SHuning uchun boshqa kurash chorasi tajriba variantimizda amalga oshirilmadi.

Biz o'rgimchakkanaga qarshi agrotexnik kurash chorasi ya'ni g'o'zani bargidan oziqlantirib, suspenziya purkaldi. Bunda g'o'zaning vegetatsiya davri davomida 3 marta suspenziya purkaldi. 1-ishlov chinbang chiqarganda (2,5kg korbomid+2,5 kg ammofos), 2-ishlov 7-10 kundan so'ng (3kg korbomid+3 kg ammofos) va so'nggi ishlov shundan (7-10 kundan so'ng 5kg korbomid+5 kg ammofos) o'tkazildi.

Eritma tayyorlash uchun ikkita bo'sh idish olinadi va har bir idishga 10 l dan issiq suv quyiladi. So'ngra idishlarga tarozidan o'lchangan korbomid hamda ammofos solinadi. Solingan dorilar erigunga qadar aralashtiriladi. Aralashtirilgan eritmani gettariga 300l suvgaga qo'shib sepiladi.

### **Tajriba maydonlarida o'rgimchakkana rivojlanishi dinamikasi**

#### **(1-barg xisobida)**

2-jadval.

Kuzatish kunlari	O'rgimchakkana soni	
	Nazorat	Agrotexnik usul korbomid+ammofosning eritmasi
1.V	5.4	5.9
10.V	25.0	27.0
20V	41.0	44.0
1VI	39.4	16.7
10.VI	15.0	11.4
20VI	17.0	8.4
1VII	26.0	6.0
10VII	14.0	9.0
20.VII	7.0	9.6
1.VIII	36.0	13.0

10VIII	27.0	11.0
20VIII	6.0	9.0
1.IX	8.0	6.0

**Izoh:** 5-iyun 2021-yil o'rgimchakkana qarshi 2-chi variantimizda agrotexnik usul suspenziya(5kg karbomid+5 kg ammofos) qo'llanildi.

### **O'rgimchakkanaga qarshi qo'llanilgan agrotexnik kurashni biologik samaradorligi (% xisobida)**

Variantalar	Tekshirish kunlari	Vositalarni Qo'llashdan oldingi Zararkunandalar soni (1-bargda/dona)	Vositalarni ko'llagandan keyingi qolgan Zararkunandalar soni(1-bargda/dona )	Biologik samaradorlik (%-xisobida)
I Nazorat kurash chorasi olib borilmadi.	20.05.2021 01.08.2021	43.0 -	- 34	-
Tajriba agrotexnik usul ammofosning 10%li eritmasi ko'llaniladi	20.05.2021 01.08.2021	46.0 -	12	66,5

3-jadval .

**Xulosa.** O'rgimchakkana g'o'zaning eng xavfli so'ruvchi zararkunandasini xisoblanadi. O'rgimchakkana g'o'za chin barg chiqara boshlaganda to hosil pishguncha qadar zarar keltiradi. O'rgimchakkanaga qarshi carbamid va

ammafos suspenziyasi qo'llanildi. Va 66,5 % biologik samardorligiga erishildi. Agrotexnik usulni qo'llash xisobiga tajriba variantimzda 4.1ts qo'shimcha Hosil olishga erishildi. O'rgimchakkanani biologiyasi, tarqalishi va zararini, xamda zararlik iqtisodiy chegarasini yaxshi o'rganib undan keyin unga qarshi uyg'unlashgan tizimda kurash chorasini olib borish talab etiladi. Demak, bizning tajribalarimizdan kelib chiqib, o'rgimchakkanaga qarshi agrotexnik kurash usuli ya'ni ammafosning 10%li eritmasini qo'llashni tavsiya qilamiz. Bu usul bir qancha afzalliliklari bilan boshqa usullardan ustundir.

### **FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Almuxammedov S. N , Xo'jaev SH "G'o'za Zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari " Toshkent - 1991y.
2. Almuxammedov S. N va boshq "G'o'zani biologik usulda himoya qilish ".
3. Xushvaqtov Q. X "G'o'zani asosiy Zararkunandalariga qarshi uyg'unlashgan kurash chorasi" Andijon-1996y
4. Mugulin. A. A "Qishloq xo'jalik entomologiyasi" (rus) Moskva 1983y.
5. Kimsanboyev X.X. va boshqa "Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi" Toshkent-2002 y
6. Xujaev SH. "Entomolgiya, qishloq xo'jalik ekinlarni himoyasi, qishloq va agrotoksikologiya asoslari" Toshkent-2021y
7. Эргашова, Х. И., & кизи Абдулазизова, О. И. (2022). Тамаки трипси (thrips tabaci lind) нинг ривожланиши ва унга қарши кураш чораси. *Science and Education*, 3(3), 123-127.
8. ЭРГАШОВА, Х. ПОМИДОР ЭКИНИДАГИ ПОМИДОР ЗАНГ КАНАСИ (ACULOPS LICOPERSICI) НИНГ ЗАРАРИ ВА УНГА КАРШИ КУРАШ ЧОРАЛАРИ. *ЭКОНОМИКА*, 738-740.
- 9 .Турдиева, Г. А., Камбарова, М. А., & Эргашева, Х. И. (2019). Применение гербицида Зета в выращивании озимого нута. *Инновационная наука*, (5), 77-79.